



Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 4/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№4/2025

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99</p> <p>MUASSIS: Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR-NAUCHNYIY VESTNIK. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko‘chirib bosalganda, manba ko‘rsatilishi shart. "Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31 - martdagি qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagи №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagи 5/7-tonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2025</p>	<p>Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas’ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboyev Nashr uchun mas’ul: M.Z.Muydinov</p> <p>TABIY FANLAR И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) А.Ж.Хусанов-физика-математика фанларин номзоди, доцент (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p>FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p>IJTIMOIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p>PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>
--	--



**DISLYEKSIYANI BARTARAF ETISHDAGI XALQARO VA MILLIY
TAJRIBALAR TAHLILI**

Saida Gazieva Turgunovna

A teacher of CSPU Tourism faculty

Linguistics and English teaching methodology department

e-mail: saykagaziyeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqola bolalarda disleksiya (o‘qish-yozish qiyinchiliklari)ni bartaraf etishda xalqaro va milliy metodik tajribalarni tahlil qiladi. Muhim qismlar sifatida nutqiy nuqsonlarni tuzatishda interaktiv o‘yinlar, Peron-Ruzer metodi, PECS texnologiyasi kabi usullar ko‘rib chiqilgan. Ta’limda individual yondashuv, til o‘rganishda fonologik va morfologik jihatlar ahamiyati ta’kidlangan. Xalqaro tadqiqotlar (masalan, Lancaster Universiteti) va mahalliy amaliyotlardan namunalar keltirilib, ingliz tilini o‘rgatishda disleksiyali bolalar uchun samarali strategiyalar taklif etilgan.

Kalit so`zlar: Disleksiya, Nutqiy nuqsonlar, Peron-Ruzer metodi, PECS texnologiyasi, Fonologik jihatlar, Individual ta’lim, Ingliz tili o‘qitish, Logopedik korreksiya, Nutqiy motorika, Xalqaro tajribalar

Abstract: The article analyzes international and national experiences in overcoming dyslexia (reading-writing difficulties) in children. Key methods include interactive games for speech correction, the Peron-Ruzer method, and PECS technology. It emphasizes individualized learning, phonological and morphological aspects in language acquisition, and practical strategies for teaching English to children with dyslexia, supported by case studies from institutions like Lancaster University.

Keywords: Dyslexia, Speech disorders, Peron-Ruzer method, PECS technology, Phonological aspects, Individualized learning, English language teaching, Speech therapy, Articulatory motor skills, International best practices

Аннотация: Статья посвящена анализу международного и национального опыта преодоления дислексии (трудностей в чтении и письме) у детей. Рассмотрены методы коррекции речевых нарушений, такие как интерактивные игры, методика Перона-Рузера и технология PECS. Подчеркнута важность индивидуального подхода, фонологических и морфологических аспектов в изучении языка, а также предложены стратегии обучения английскому языку детей с дислексией на примере исследований Ланкастерского университета.

Ключевые слова: Дислексия, Речевые нарушения, Методика Перона-Рузера, Технология PECS, Фонологические аспекты, Индивидуализированное обучение, Обучение английскому языку, Логопедическая коррекция, Артикуляционная моторика, Международный опыт.

KIRISH.

Har qanday insonning rivojlanishida ta’lim tizimi muhim o‘rin tutadi. Ta’lim va tarbiyaning metodik tashkillantirilishi hamda qulayligini nazorat qilishga yo‘naltirilgan sabab va natijadorlik boshlang‘ich va quyi ta’lim tizimida bir-biriga mantiqiy bog‘lam hosil qilishi zarur. Negaki, bolaning maktabgacha bo‘lgan davrdagi nutqiy ko‘nikmalari: gapis, anglash, tushunchalarni erkin va xotirjam ifodalay olishi uchun har qanday vaziyatda ota-onada va pedagog-tarbiyachining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tillarni o‘qitish asnosida taqdim qilinayotgan metodik qurollanish zamirida oson va qulay, ixcham hamda natijadorlik sari yetaklaydigan qator nazariy-amaliy tavsiyalar bo‘lishi lozim. Ayni chog‘da, o‘qituvchi-pedagogning o‘z ustida muntazam izlanish olib borishi fikrimizni to‘laqonli quvvatlaydi.

Nutq – harf va so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini taqozo etadi. Bolaning tabiat va jamiyatga moslashuvchanligi, duduqlanish protsessida tushunchalarni ifodalay olmasligi kabi masalalar XX asming boshlariga qadar nazariy-ilmiy jihatdan ingliz va boshqa qator ilg‘or davlatlar olimlari tomonidan evolyutsion tarzda metodik ishlab chiqilganligi har birimizga ayondir. Shunday bo‘lsa-da, zamonning shiddat bilan rivojlanishi, hayotning biz ilg‘amanagan jihatlarini o‘qituvchi o‘z vaqtida samarador usullar bilan anglatish yo‘liga jiddiy kirishishi hal qiluvchi masalalar jumlasiga kiradi. Chunki o‘quvchining oilaviy shart-sharoiti ham, ularning bilim olish ko‘nikmalari ham muammoning o‘ziga xos yechimga olib kelishini ta’mindan etadi.

METODOLOGIYA

O‘qituvchi o‘z o‘quvchisining xulq-atvorida qandaydir maqsad borligini bilishi lozim. Negaki, bolaning o‘zlashtirish qobiliyatini yuzaga chiqaradigan tanqidiy ko‘nikmalarining ustida izlanishi kerak. Harfni talaffuz qilish, uni to‘g‘ri yozish, uni so‘zlar bilan bir-biriga bog‘lay olishi zarurligini hisobga olish muhim. Chunki o‘qituvchi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi mumkin, metodik jihatdan oqsashi esa, muloqotga kirishish ko‘nikmasini chegaralab qo‘yadi. Shuning uchun quyidagi disleksiyani bartaraf etishga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarini keltirib o‘tamiz.

1. Nutqiy muloqotga undovchi o‘yinlar. Har qanday ta’limning mazmun-mohiyatida muloqot birinchi o‘rinda turadi. Bola eshitadi, tushunchalarni anglaydi, ularni o‘zaro qiyoslaydi. Harflarni to‘g‘ri talaffuz qilish yo‘sinlarini o‘zlashtiradi. To‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini o‘zida diqqat bilan sinovdan o‘tkazadi. Nutqidagi nuqsoni bor o‘quvchining individual dunyoqarashi o‘qituvchi tomonidan, tegishli mutaxasis, logoped nazarida jiddiy o‘rganilib, ota-onada bilan hamkorlikda texnologiyasi joriy qilinadi. Imo-ishoralar orqali bolaning o‘zini erkin va ijodiy zehniyati borligini, avvalo, ishonchlilik tamoyilining o‘sib borishini namoyon qiladi.

2. Peron – Ruzer metodikasi. Ingliz tilini o‘z ona tili kabi o‘zlashtirishda mazkur metodning afzallagini o‘qituvchi psixodiagnostika orqali anglaydi. Xatolarni to‘g‘ri talqin qilishda bu metod 1986 yil nisbatan qulayligi bilan ajralib turadi. Patosixologik diagonostika negizida o‘quvchi berilgan figuralarni to‘g‘ri chizishi, ularning xatolarini o‘qituvchi tahlili qilishi lozim.

Bolalar 8-9 yoshda harflarni to‘g‘ri talaffuz qilib, ixcham she’riy matnlarni bemalol aytma olish malakasini egallagan bo‘lishadi. Shuning uchun har bir bola bilan individual ta’lim olib borish va ularning boshqa chuqur o‘zlashtira olish qobiliyatiga ega o‘quvchilarga qo‘sish, tashqi va ichki ta’sir texnikasini yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xatolarning har qanday vaziyatda bartaraf etilishi, yozish va talaffuzdagi buzilishilarining oldini olshiga sharoit hozirlaydi. Chunki insonning ongidagi so‘zlar sistemasi tashqi olam bilan doimiy ravishda muloqot etiketini namoyon etadi. Bir qarashda bola muloqotni qadrlasa, o‘z-o‘zidan uni so‘zlardan foydalanish va “gapiroq mashina” bo‘lishiga – to‘xtovsiz gapiroq, texnikasini namoyon etishga ko‘maklashilsa, nutqiy nuqsonlar ham asta-sekinlik bilan orqaga chekinib, yaxshi natijalarning yuzaga chiqishiga hozirlik taqdim etadi.

Muloqot o‘qituvchi yoki o‘quvchi, o‘quvchi va o‘quvchi orasida mammunlik paydo qilsa, bolalar katta yoshdagilarga ko‘pincha taqlid qilishga intilib, harakat qilishga odatlanadilar. Taqlidning natijasi esa hayotning har bir yo‘sinda ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham, o‘qituvchi ingliz tili darslarida rolli va video tasvirlar namoyon etiladigan ko‘plab o‘yinlarni taqdim qilishlari muhim hisoblanadi. Deaylik 4-5 daqiqalik film. Bu o‘rinda bolalarning yosh nuqtai nazari ham hisobga olinishi zarur bo‘ladi.

“Agar bolalar muloqotni faqat imitatsiya yo‘li bilan o‘zlashtirsalar, jarayon sekinroq kechadi. Nutqiy motorikasida muammolari bo‘lganda, bola ayrim tovushlarni talaffuz qilishga qodir bo‘lmasligi mumkin, lekin u, turgan gapki, albatta intilib harakat qiladi, ehtimol, ayrim tovushlarni boshqasi bilan almashirgan holda bo‘lsa ham. Bola agar boshida, so‘z uning nutqiy motorikasi ustida ishlayotganingizda, agar siz uning nima demoqchi ekanligini tushunishni o‘rganib olgan bo‘lsangiz, o‘z tilida gapiroqishi hech ham xavotirli emas. Bola har xil tovushlarni talaffuz qilishni mashq qiladigan va so‘zlarni qanday bo‘lsa shunday aytib berishni o‘rganadigan o‘yinlar o‘ynashi mumkin”.

Dunyo ta’lim tajribasidagi to‘plangan boy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdagi, Lancaster Universiteti professori, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitadigan o‘qituvchilar uchun disleksiya loyihasi mualliflaridan biri Yudit Kormosning fikricha yozuv bu alfavit deb nomlangan maxsus tartibdagi fonemalar ma’nosini anglatadi. O‘qish va o‘qish qiyinchiliklarida orfografiyaning ta’sirini o‘rganish uchun yozuv sistemasini sof holatda xotirada tutish lozim va doimiy alfabetik tartibni sababi fonologik va morfologik xususiyatlari, tarixiy omillari, dialektik xilma-xillik, kirib kelgan so‘zlar tez-tez orfografik ko‘rgazmaga ta’sir qiladi. Yana shu narsa eslatiladiki, alfavitik sistemaning juda ustunligi, anchagina kam miqdordagi xarflar tovushlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

NATIJA

O‘qish tarixiga doir metodik qo‘llanmalarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligi **Speed writing** texnikasi asosida ko‘rib va uni tajribalash mumkin. O‘quvchilarning yozish qoidalarini tekshirish, yozishni talaffuz qilish usullarini tahlil qilish, uning o‘ziga xos murakkabliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, quyidagicha sinov-tajriba olib borish maqsadga muvofiqdir:

O‘qituvchi o‘zining ta’lim berish metodikasidan kelib chiqqan holda, nutqida nuqsoni bor bolalarning qanday o‘zlashtirayotganini belgilab olishi zarur. Har kuni o‘quvchiga 5-10 ta so‘z beriladi. Bu so‘zlarni yozish asnosida o‘quvchida tushunchalar ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Tushunchalarni talaffuz etishga yo‘naltirilgan metodlardan qulaylari saralab olinadi. Alovida va birgalikda ishslash metodlari esa bolalarning zehniyatidagi o‘sish va o‘zgarishlarni sintezlab boradi. O‘qituvchining eng birinchi vazifasi shuki, bolalarning psixofizik evrilishlarini talqin qiladi. Bir haftada qancha so‘z to‘g‘ri talaffuz qiladi, bir oy mobaynida qancha so‘zni to‘g‘ri yozish va gapirish malakasini egalladi. Ayni shu tamoyil ingliz tilini chuqur o‘zlashitira olish malakasiga qarab o‘sish diagrammasini keltirib chiqaradi.

Nutqida nuqsoni bor bolalardagi disleksiyani bartaraf etishda PECS (Picture Exchange Communication System) – bu karta almashinuvi orqali muloqot madaniyatini o‘zgartirish tizimi hisoblanadi. Mazkur aloqa sistematik tarzda AQShning Delaver shtatida nuqsoni bor bolalarni tuzatish loyihasi asosida o‘tgan asrning oxirlari, 1985 yilda Endi Bondi va Lori Frost tomonidan fanga tatbiq qilingan.

Metodist tadqiqotchi J.Jalolov “Chet til o‘qitish metodikasi” nomli ilmiy asarida ingliz tilida yozma nutq ko‘nikmasini quyidagicha ta’riflaydi: “Chet tilda yozuv deganda, ushbu til vositalari qo‘llanib, yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi. Yozma nutqda qo‘llanadigan lisoniy vositalarni, birinchidan, grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklar tashkil etsa, ikkinchidan, ularning qo‘llanishi yozma nutqning yozish texnikasi xisoblanadi. Demak, grafik vositalar va ularning texnikaviy jarayoni haqida so‘z yuritiladi. Material va uni qo‘llash tushunilmoqda. Yozish texnikasidan foydalanib, fikrni chet tilda yozma bayon etilsa, yozma muloqot yuz beradi”. Binobarin, PECS texnologiyasining disleksiyasi bor o‘quvchilarda sinovdan o‘tkazish orqali ularning o‘qish va yozish, talaffuz me’yorlarini yuksaltirish mumkin. Negaki, har qanday muloqot zamirida – rivojlantiruvchi asos bo‘lishi muhim. agar o‘qituvchi yosh va anglash ko‘nikmalari nuqtai nazaridan moslashuvchan texnologiyalarni ta’lim tizimiga tatbiq qilolmasa, natijadorlik ham o‘z samarasini bermasligi tabiiydir.

MUHOKAMA

Oiladagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishi va parchalanishi natijasida yo‘l qo‘yilgan eng ulkan xato – tarbiyaga muhtoj bolaning kelajagiga katta zarba berishi mumkin. Chunki tarbiyaga muhtoj bolaning ahvolotidan vaqtida xabar olmaslik, nafaqat o‘z ona tilini o‘zlashtira olishi, balki ingliz tilini ham o‘zlashtirishida katta jarlik hosil qiladi. Mana shu jarayon boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishning samaradorligiga rahna soladi. U har qanday metodlarni qo‘llab ko‘rgani bilan o‘quvchining to‘g‘ri har talaffuzi, harflardan so‘z talaffuzi, so‘zlardan jumlalar tuzishida eng mushkul talqinlarni keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash lozimki, ingliz metodist olimlarining nazariy-ilmiy mulohazalaridan shuni bilish mumkinki, ular A.Burns va J.Richards bolalarda nutqiy ko‘nikmani rivojlantirishning sabab va oqibatlarini chuqur anglab idroklaganlar. Negaki, bolalar ham yozuv ko‘nikmasi va yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘zga tilni o‘rganish jarayonida qiyinchilikka duch kelish tabiiy hol hisoblanadi. Sababi, umumiy til xarakterlaridan tashqari, tildagi farqlar (cross-linguistics) oqibatida xorijiy til o‘rganuvchilari maxsus qiyinchiliklarga duch kelishadi. O‘z tilida qanchalik kompetent va savodli bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zga tilda muayyan qiyinchiliklar bo‘ladi. Shunday qilib, ba’zida chet tilida fikrni bayon qilishlarida yozma nutq mexanizmini nutqiy operatsiyalarning barchasini o‘z ichiga olgan holda yozma nutqiy faoliyatni nutqiy ehtiyoj, ko‘zlangan maqsad va nutqiy vaziyatga mos ravishda amalga oshirishni ta’minlovchi nutqiy mexanizmning tarkibiy qismi deb hisoblash mumkin. Haqiqatdan ham, nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish jarayonida insonning eng muhim ta’lim tarbiyaviy jarayonga munosabati, har bir pedagogning o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlari hisoblanadi.

XULOSA

Yangi zamon ta’lim metodologiyasi qulay standartlarni ixcham ifoda qilish tamoyilini talab qilayotgani sir emas. Yuqoridagi fikrlar bo‘yicha nazariy-ilmiy mulohazalar borasida quyidagi xulosaga kelindi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi disleksiyasi mavjud bolalarning individual ta’lim metodlari yoki inklyuziv ta’lim samaradorligini yanada taraqqiy ettirish maqsadida bolalar nutqida kuzatilgan yosh va psixofizik yondashuvlarni yuzaga chiqarishga imkon beradi. Bola nutqning oilada ota-onada yoki tarbiyalanuvchi ilk bog‘cha muassasalaridagi bartaraf etish yo‘sinlarining sayozligi, ularga jiddiy e’tibor berilmaganligi ko‘plab muamolarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Jahonning ilg‘or mamlakatlarida bu muammoga turlicha yondashuvlarni taqozolaydigan nazariy-ilmiy maktablar qariyb ikki yuz yildirki takomillashib kelmoqda. mana shu muammolarning asl sabab va oqibatlari jamiyat hayotidagi oilaning psixo-estetik qamroving buzilishi, qulay muhitning mavjud emasligi bilan ham o‘lchanadi.

2. O‘qish davomida bola ruhiyatida salbiy holatlar kuzatilsa, demak, bolalarning har biri bilan individual izlanishlar olib borish muhim. Bola yozuvda yoki o‘qishda, tushunishda va uni talaffuz qilishda muayyan qiyinchiliklarga uchradimi, ta’lim beruvchi ishslash metodikasini tubdan o‘zgartirish lozim.

3. Tovush va harflarni to‘g‘ri talaffuz qilishda yoki, so‘z va iboralarni o‘qishda nuqsonlarga yo‘l qo‘yadigan o‘quvchi bilan o‘qituvchi, ota-onada hamkorligida, psixolog mutaxassis bilan birgalikda ish ko‘rmog‘i zarur. Negaki, bola atrof-muhitdan olgan tasavvurlarini erkin ifoda qila olmasligi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, hayot haqiqatini bir muncha ilg‘ay oladi. Lekin uning aqli zaifligi, ruhiy stresslar, oilvdagi muhitning parokandaligi bolalarni bir-biriga bo‘lgan ishonchining susayishiga olib keladi. So‘z va tovushlarni ona tilida ham, o‘zga tillarda ham idroklashda bola anchayin qiyinchiliklarga duch keladi. Zamonga mos ta’lim texnologiyalari hamda multimediyalar o‘quvchi biologik va psixologik, estetik olamini

yanada kuchli rivojlanishiga zamin yaratadi. Ana shu mezonni fan o‘qituvchisi vijdonan bajara olsa, muammoning o‘z-o‘zidan yechimiga kelishiga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Qodirova F., Pulatova D. Autizm sindromli bolalar bilan ishslash metodikasi. –T: Chirchiq. 2023. –B.110.
2. Mustafayeva N. Talabalarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda disgrafiya, disleksiya va dispraksiyani bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Yairchiq. 2022. –B.66.
3. J.Jalolov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. –T: “O‘qituvchi.” 1994. –B.260.
4. Burns A., Richards J.C., Pedagogy and Practice in Second Language Teaching” Cambridge University Press,2012, p227
5. Reid, G. (2012). *Dyslexia and Inclusion: Classroom Approaches for Assessment, Teaching, and Learning*.
6. Snowling, M. J. (2019). "Dyslexia: A Cognitive Neuroscience Perspective." *Current Directions in Psychological Science*.
7. Gabrieli, J. D. E. (2009). "Dyslexia: A New Synergy Between Education and Cognitive Neuroscience." *Science Journal*.
8. International Dyslexia Association (IDA). <https://dyslexiaida.org>

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODOLOGIK AHAMIYATI <i>Yakubova Manzura Abdurahmonovna</i>	1203
INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND TRANSFORMATIONAL APPROACHES IN HIGHER EDUCATION MANAGEMENT <i>Z. Xasanova</i>	1209
KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR AHAMIYATI <i>Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna, Sodiqova Iroda Jumodil qizi</i>	1219
PEDIATRIYA FANLARNI O’QITISHDA KLINIK TA’LIM TEXNOLOGIYASINI LOYIHALASH VA ISHLAB CHIQISH USULLARI <i>Normatov Jasur Javli o‘g‘li</i>	1227
SPEECH METHODOLOGY OF TEACHERS IN MODERN EDUCATION AS AN EXAMPLE OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE <i>Nurmatova Faiza Irikovna</i>	1236
BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA OG‘ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISH USULLARI <i>Olimova Nilufar Qosimjon qizi, Azizaxon Usmonova Olimjon qizi</i>	1243
O’QITUVCHILARNING O’QUVCHILARGA O’QUV STRATEGIYALARINI O’RGATISH KO’NIKMALARINING SHAKLLANGANLIK DARAJASI DIAGNOSTIK TAHLILI VA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI <i>Pulatova Muattar Kurakboyevna</i>	1249
KICHIK MAKTAB YOSIDAGI O’QUVCHILARGA SINONIMLARNI O’RGATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	1254
DISLYEKSIYANI BARTARAF ETISHDAGI XALQARO VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI <i>Saida Gazieva Turgunovna</i>	1262
BOSHLANG’ICH TA’LIMDA SHE’RIY MATN NAMUNALARINI INNOVATSION O’RGATISH USULLARI <i>Sattorova Fotima Sharif qizi</i>	1268
TA’LIMNING INTERAKTIV METODLARI ORQALI AL-FAROBİY İJODINI O’RGANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI <i>Nuritdinova Nozima Xondamir qizi, Shirinov Muzaffar Kucharovich</i>	1276
BOSHLANG’ICH SINF O’QISH DARSLARIDA PIRLS TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHNING O’QUVCHILAR MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATINI O’RGANISH <i>Choriyeva Valida Abdug‘ani qizi</i>	1282
TALABALarda AKMEOLOGIK POZITSIYANING SHAXSIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI <i>Xaitov Abdukosim Abdulakim o‘g‘li</i>	1289
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO’LAJAK TARJIMONLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJOBIY SAMARASI <i>Mamarajabov Botir Baxodir o‘g‘li</i>	1294
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ МАТЕМАТИЧЕСКИМ МОДЕЛЯМ НЕЛИНЕЙНЫХ ПАРНЫХ КОРРЕЛЯЦИЙ <i>Эшикова Феруза Кенжабоевна, Довронова Мехринисо Шавкат кизи</i>	1300
AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALANUVCHILARNI KOMMUNIKATIV SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI <i>Almardanov Jo‘rabet Bobonazarovich</i>	1308
AQLI ZAIF BOLALAR SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLAR VA TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISH <i>Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	1313